

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Choriyev Hamid Hasan o‘g‘li Termiz davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” mutaxassiligi magistri

choriyevhamid36@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o‘qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma‘lumotlar va manbalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, qobiliyat, ijodkorlik, ko‘nikma, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, fikrlash, tafakkur.

Darhaqiqat har qanday jamiyatda yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta‘lim tizimining ajralmas va eng asosiy bo‘g‘ini boshlang‘ich ta‘lim ekanligini e‘tiborga olgan holda aynan kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga shu bosqichda alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarga nazariy va amaliy bilimlar hamda kreativ fikrlash ko‘nikmalari bilan birga milliy urf-odatlar va qadryatlarni hurmat qilishi, manaviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog‘lam va barkamol, fuqarolik burch va masuliyatini shakllangan bo‘lib voyaga yetishlari kerak.

Darhaqiqat bugungi kunda ta‘lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta‘lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta‘limni hayot bilan bog‘lashni, o‘qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishni talab qiladi. Bu o‘rinda ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo‘llanishi davr talabi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham yosh avlodni rivojlangan huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash pedagog kadrlardan yangicha yondashuv hamda ijodkorlik, kreativlikni talab etadi. Avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda tanlanadigan zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlanishi va yana albatta o‘zida insonparvarlik va demokratik xususiyatlarni aks ettirishiga alohida ahamiyat berish zarur. Ta‘lim tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o‘qitishning kreativ texnologiyasi bo‘lib, uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg‘otish va uning o‘zida bor bo‘lgan ijodiy

imkoniyat (potensial)ni rivojlantirishdir. O'qitishning kreativ texnologiyasi bajarilganda shaxs ijodkorlik ob'yekti darajasidan ijodkor sub'yektga o'tkaziladi, o'quv materiali o'zlashtirish fanidan biron ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanadi. Kreativ texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar D. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi: 1) o'zini tavakkaldan olib qochish; 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish; 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; 4) boshqalarga tobe bo'lish; 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik

lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;
- o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: «O'quvchining o'quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o'quv material va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta'lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo'lgan muhitda o'quvchi o'quv topshiriqlarini oson o'zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi». O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr "laboratoriyasi"ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir.

Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega: 1. U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. 2. U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi. 3. U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi. 4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil "kashf etilishi" olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin. Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o'quvchilarning o'quv jarayoniga munosabati o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ta'sir jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o'quv natijalariga qo'yiladigan baho tizimiga bog'liqligini ko'rsatdi. Kreativlik va o'zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog'liq.

Buyuk olim V.A.Slastinin ijodkorlikning asosiy xislatlarini quyidagicha belgilagan:

shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi, qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilish; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati; Kreativ salohiyatga ega o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga kreativ va mustaqil yondashadilar. Shuning uchun ham kreativ ta'lim texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining

sinf dan tashqari faoliyati davomida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda tarbiyachi yo'naltiruvchi, o'quvchi ijodiy loyihalovchi sifatida ishtirok etadi.

O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi: -Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik" dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish -O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish uchun tavsiyalar:

- Yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashingizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'lo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasi o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. O'quvchi faqat sinfda o'tirishi kerak emas, vaqti bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

- Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniga qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning. O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi. O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqea-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, prezidentasiya qilib ko'rsatish. Darsda o'quvchida oxirgi taassurotni qoldirish bu juda muhim.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Toqatli bo'lish kerak. Bu o'quvchiga darrov baho berib qo'yishdan saqlaydi. Yana kechirimlilik, mehribonlik, mas'uliyat va o'quvchini eshita olish-bu o'quvchini fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishiga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida

aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan. Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi: 1) avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo'lishi. O'qituvchi o'quvchilarga erkinlikni, albatta, me'yorida ta'minlab berishi lozim; 2) boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu -bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni o'qituvchilar ma'suliyatli va e'tiborli bo'lish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
2. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
3. Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
4. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНING ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
5. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
6. Ashurova, S. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
7. Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.

8. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2023). OILADAGI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUHITNING BARQARORLIGI TA'MINLASHDA QAYNONA VA KELIN MUNOSABATLARINING O'RNI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8259>
9. Eshmurodov, O. (2023). OILAVIY MUNOSABATLAR BARQARORLASHSHUVIDA MILLIY QADRIYATLARINING ANAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8238>
10. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
11. Eshmurodov, O. (2022). ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7431>
12. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
13. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
14. Нарбашева, М. А.(2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169.
15. Ashurova, S. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
16. Ashurova Sh.F. A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION . Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL). 2022. <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)
17. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
18. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и

- психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
19. Жабборов Хазрат Хусенович. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар образование и инновационные. Халқаро илмий-методик журнал. ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH № 9, 2022 сентябр. Б. 270-283
20. Хазрат Хусенович Джабборов Социально-психологические индикаторы национального воспитания. Science and education scientific journal ISSN 2181-0842. Volume 3, Issue 3. March 2022. Page 1082-1089. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2883>
21. Kh.Kh. Jabborov. The study of the problem of national education by eastern thinkers. **International Journal of Pedagogics** (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
22. Botirova Dilafruz Bozorovna International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –B 1838-1843. <https://www.scopus.com/sourceid/21101016918/>
23. Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.
24. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
25. Mardonov, E. (2023). O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI RIVOJLANISH JARAYONI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8472>
26. Baxtiyorov, R., Botirova, D., & Jo‘rayeva, M. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDA MULOQOTCHANLIK ORQALI AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8471>
27. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8470>
28. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).

29. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 20, 49-51.
30. Eshmuradov, O., & Ismoilova, G. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *Science and innovation*, 1(B4), 201-205.
31. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 1318-1323.
32. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 143-149.
33. O. Eshmuradov, & G. Ismoilova (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *Science and innovation*, 1 (B4), 201-205. doi: 10.5281/zenodo.6902544
34. Kamolova, Shirin Usarovna, & Axmedova, Fotima Xurramovna (2022). SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 630-636.
35. Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O'SMIRLAR KELIB CHIQUISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
36. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
37. Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
38. Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta 'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 481-483.
39. Norbekova, B. (2021). Socio-Psychological Characteristics of National Character. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed*, 7(1).
40. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109.
41. Норбекова, Б. (2021). Духовно-нравственный образ семьи. *Общество и инновации*, 2(2/S), 123-128.
42. NORBEKOVA, B. (2021). Жамият ва инновациялар—Общество и инновации—Society and innovations.

43. Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.
44. Yo'ldoshyev, S., & Jo'lmurodov, O. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIK QADRIYAT SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 3-7. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8481>
45. Yo'ldoshyev, S., & Fayzullayeva, M. (2023). STRESSNI KELIB CHIQISH SABABLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 8-14. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8482>
46. Yo'ldoshyev, S., & Otaqulova, S. . (2023). SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8473>
47. Yo'ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8393>
48. Yo'ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O'QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8389>